

Tosh barmoqlari orasida tutayotgan sigaret qoldig'ini kuldon chetiga bosib o'chirdi-da, ro'parasida turgan yigitchalarga yer ostidan o'qrayib qaradi va stol ustida yotgan tugunchaga imo qildi:

- Bu nima?

Yigitchalar tezda bir-birlariga qarab olishdi.

- Boya aytganim, o'lja... - ming'llab qo'ydi yigitchalardan biri - qo'l-oyoqlari kalta, ko'zlar o'ynab turadigan Chittak laqabli o'g'ri. Tosh och degandek imo qildi.

Yo'g'on bo'yniga ingichka zanjir taqqan, sochlari jo'xoripopukka o'xshagan sap-sariq bola chaqqonlik bilan tugunchaning uchlarini yoyib, yana o'mniga borib turdi.

Tosh belidan rezin, ba'zilariga ip o'tkazib bog'langan bir dasta eski yuz so'mlik, ikki yuz so'mliklarni ko'rib, xuddi bemaza narsa yegandek aftini burishtirdi-da, savolini qaytardi:

- Nima bu?

- Soqqa, - dedi Chittak iljayib.

- Men sendan so'rayapman, Malla? - ovozini balandlatdi Tosh.

- Bugungi "ov"imiz shu bo'ldi, Tosh aka, - deya Malla laqabli o'g'ri ko'zlarini olib qochdi.

- Qaerdan oldilaring? - unga qattiq tikildi Tosh.

- Chorsu bozori oralab o'tib ketayotuvdik, - dedi Chittak tirjayib. - Qarasak, bir chol bilan kampir bir-birini "podrujka" qilib ketishayapti. Qo'llarida ro'zg'or xalta. Ichida shu bor ekan. Oldik. Shu...

Bu g'alati suhbatni, Toshning gap-so'zlaridagi sovuq ohangni sezib, nariroqdagi pastak kursi yonida "durak" o'ynab o'tirgan bir-biriga juda o'xhash ikki yigit va qop-qora, basharasi sovuq yigit jim bo'lishdi.

- Qancha ekan? - so'radi yana Tosh qoshlarini chimirgancha, qo'llarini qovushtirib o'tirarkan.

- Bilmadim? - yelka qisdi Malla. - Sanamadik...

- Ko'rinishidan yigirma-o'ttiz ming chiqib qoladi, - gappa qo'shildi Chittak stol ustidagi pullardan ko'z uzmay.

- Kunlaring endi chol-kampirlarning pensiyasiga qoldimi? - istehzoli kulimsiradi Tosh. - Uyalmadilaringmi?

- Nega uyalish kerak? - tushunmadni Chittak bidirlab. - Ikki qo'lni burunga tiqib qaytgandan ko'ra, yaxshi-ku!

- Yomon! - stolga tap etib urib, o'rnidan turdi Tosh va yigitchalarga ro'baro' keldi. - Men senlarga nima deganman?

Hech kim javob bermadi.

- Kambag'al, zo'rg'a sudralib yurgan bechora odamlarning pullariga tegmalaring deganmanmi? - ko'zlarida sovuq bir o't yaltirab ketdi Toshning. - Gapirlaring!

- Nima deymiz? - xo'rsinib qo'ydi Malla boshini egib.

- O'l deysan, dard deysan! - to'satdan baqirib yubordi Tosh mushtlarini qisib. - Eplasang o'g'rilik qil, xo'pmi?.. Bo'lmasa, ana katta ko'cha! Palosmi, namatmi yo kafanlik olishga tushgan chol-kampirning arzimagan pulini o'marib kelib, yana o'lja deb oliftalik qilasan!

Yigitchalar indashmadi.

- O'g'il bola bo'l salaring, ana, beli sinmagan dollarlarni sanab o'tirgan boyvachchalarni, ko'zini lo'q qilib xaridorning haqidan urib qoladigan savdogarlarni shilinglar! Olib borib beringlar buni!

- Qayoqqa? - hayron bo'ldi Chittak.

- Katta xolangnikiga! - unga yeb qo'ygudek qaragan Toshning taqa mo'ylovi asabiy titrab ketdi. - Eslaringda bo'l sin, gadoning dushmani gado bo'ladi. O'g'ri o'g'rilarni shilishi kerak!

- Bir-birimizni demoqchimisan? - luqma tashladi qora yigit o'rnidan turarkan.

- Sendan hech kim gap so'ragani yo'q, Qora! - yelkasi osha unga xo'mrayib qarab qo'ydi Tosh. - Sen bilan meni dog'da qoldirib ketadigan o'g'rilar bor. Bo'yniga galstuk bog'laganmi, boshiga shlyapa kiyaganmi, ahamiyati yo'q. Ana o'shalarni shilishi kerak! - u shunday deb yana ro'parasidagi yigitchalarga o'g'irildi. - Bu pullarni kimning sumkasidan olgan bo'l salaring, o'sha joyga qo'yib kelasanlar.

- Tosh aka... Shartmikan? - ming'lladi Chittak lablarini qimtib.

- Menga qara, Chittak, - Tosh ovozini pasaytirdi, - agar yana bir marta shunaqa gap qilsang, patlaringni bittalab yulib tashlayman... Chittak ma'qul ishorasini qilib, stol ustidagi pullarni yana ro'molchaga tugarkan, nariroqda suhbatga qulq solib jim turgan Qora Toshga yaqinlashdi.

- Nima qilayapsan o'zi, Tosh? - dedi norozi ohangda. - Qayoqqa yuborayapsan bularni? Qaysi kissavur o'g'irlagan narsasini joyiga qaytarib olib borib qo'yadi? Qo'lga tushib qolishsa nima bo'ladi?

- Sen aralashma dedim, - dedi Tosh unga qaramay.

- O'zingni kambag'alparvar, vijdonli qilib ko'sratmoqchimisan? - kinoyali tirjaydi Qora tilla tishlarini yiltiratib. - Ming tovlanma, sen ham o'zimiz qatori o'g'risan!..

Tosh unga o'girildi-yu, indamadi. Sekin yoniga keldi.

- Yana? - dedi ko'zlarini qisib.

- Bo'ldi.

- Yo'q, bo'l madi.

- Nima bo'l madi? - xuddi uni mazax qilayotgandek atrofdagilarga namoyishkorona qaradi Qora.

- Mana bu! - tizzasi bilan uning chotiga tepdi Tosh.

Qora uh degancha bukchayib qoldi va hali boshini ko'tarib ulgurmay, jag'iga tushgan kuchli zarbdan gurs etib ag'darildi, og'zi-burnidan tirqirab qon otilib, tipirchilagancha yotib qoldi.

Xonadagilar qimirlashga, biron nima deyishga ham hayron edilar.

- Agar yana bitta shunaqa qichiq gap qilsang, chotining yirib tashlayman, - Tosh shunday derkan, xo'mraygancha Malla bilan Chittakka qaradi, - endi borib, aytganimni qilinglar. Tomosha tamom.

Yigitchalar shosha-pisha xonadan chiqib ketishdi.

- Hasan, - dedi Tosh bir-biriga o'xshaydigan yigitchalarga qaramay. Ulardan biri yaqinlashdi.

- Eshitaman, Tosh aka.

- Sen anavi ikkalasining orqasidan sezdirmay bor. Qara! Agar biron o'yin qilishmoqchi bo'lsa, yaxshilik kutishmasin.

- Xo'p, aka, - Hasan shunday deya qoziqdagi kalta charm kurtkasini yelkasiga tashlab, eshik tarafga yurdi.

Eshik ochilib, yopildi.

- Husan, - dedi yana Tosh hamon yerda ingrab yotgan Qoraga jirkanganday tikilib.

- Labbay, aka? - Husan unga yuzlandi.

- Sen Qoraga yordamlash, yuz-ko'lini yuvib olsin.

U shunday derkan, kulimsiragancha gapida davom etdi:

- Juda ishqalab yuvmasin. Qora narsa oqarib ketsa, tanimay qolmaylik tag'in.

- Xo'p bo'ladi, - dedi Husan Qora tomon yurarkan.

Tosh labiga sigaret qistirdi-da, to'pponcha shakldagi yondirgichni yoqib o't oldirdi va indamay eshikdan chiqib ketdi...

* * *

Shaharning xilvat bir burchagiga joylashgan, sirtdan qaraganda hech kimning diqqatini jalb etmaydigan, deraza oynalari sinib, qiyshayib qolgan katta eshigi tepasiga "Makulatura. Shisha. Plastmassa idishlar qabul qilish punkti" deb qing'ir-qiyshiq harflarda yozib qo'yilgan ko'rimiszgina imorat va uning o'nqir-cho'nqir, axlatxonani eslatuvchi hovlisi har joydan yig'ishtirib kelinadigan chiqindi, qog'oz va idishlar makoniga o'xshab ketar edi.

Atrofi beton devor-u temir panjaralar bilan o'ralgan bu chog'roqqina hovli, to'g'rirog'i, isqirt maydonchaning tevaragini changalzor yanglig' chigal na'mataklar, malina butalari, katta-kichik daraxtlar qoplagani, ular oralab o'tgan torgina yo'llkaning adog'i devor ortidagi Jinariq jarlariga ulanib ketgani va devorning bir qismini, darvoza o'rnini bajaruvchi panjarali to'siqning ochilishi, u yog'i jar yoqalab xalqa yo'liga hamda shaharga chiqiladigan hududga olib borishi yetti uxbab hech kimning tushiga ham kirmaydigan g'ayritabiyy manzara edi. Bu narsa bu yerga mashina-mashina chiqindi qog'ozlar-u bo'shagan shisha, plastmassa idishlarni keltirib tashlaydigan haydovchilarining ham xayoliga kelmasdi.

Ana shu pastakkina, omonat uychaning aylanma tor zinalardan tushiladigan yerto'lasi va u yerdagi manzarani ko'rgan kishining esa esi og'ib qolishi tayin edi.

Yerto'la bir necha katta-kichik xonalarga ajratilgan bo'lib, xuddi yerosti qasrining o'zi desa, to'g'riroq bo'lardi.

Shohona bezatilgan hayhotdek mehmonxonaga kiraverishda katta konditsioner o'rnatilgan, pastak shiftga osilgan billur qandilning ko'zni qamashtirguvchi shu'lasi devorlarga osilgan guldar gilamlarning sathida, oynavand shkafning oynalarida jilvalanar, qaerdandir magnitofondan turk estradasining sho'x musiqasi qulooqqa chalinar, ana shu musiqa hamda burchakdagi kamin ichidagi cho'g' va o'tinlarning allanimadan cho'chigandek asta chirs-chirs etib qo'yishigina bu yerdagi sirli sukunatni buzayotganga o'xshardi.

Kamin ro'parasidagi tebranma yog'och kresloda do'ndiqqina bir juvonni tizzasiga olib o'tirgan yo'g'on mo'ylovli, polvonkelbat yigit ana shu "qabul punkti"ning va ayni chog'da shu hududdagi kissavurlarning boshlig'i Tarlonning kayfiyati yaxshi emasligi turqidan sezilib turardi.

Shu topda guldar, harir xalatining yoqalari ochiq juvonning xuddi mushukdek o'ziga suykalishi, tarang ko'kraklarini ishqalab, uzun tirnoqli barmoqlari bilan sochlarni tarab, bo'ynidan quchgancha o'pib o'tirishi ham Tarlonga yoqmas, goh qadahdag'i konyakdan ho'plab, goh sigaret tutatgancha xayolga cho'mib o'tirardi.

Shu payt kiraverishdagi zina tarafdan kimningdir qadam tovushlari eshitilgandek bo'lidi-yu, juvon sergaklandi. Keyin norozi qiyofada o'sha tarafga qarab qo'yib, xalatining yoqasini yopish barobarida yigitning tizzasidan tushib, o'rnidan turdi.

Eshik taqillab ochildi va Toshning yuz bichimlari xuddi mumdan o'yib ishlangandek chiroyli boshi ko'rindi.

- Ke, kel Tosh! - jilmaydi Tarlon kresloga o'rashib o'tirarkan va shu lahzaning o'zida yonida maishatini buzgani uchun Toshga chimirilib turgan juvonga ket degandek ko'zlar bilan imo qildi. Juvon uni tushundi-yu, xonaning qarama-qarshi burchagidagi, eshigiga bambuk parda tutilgan xona tarafga o'tib, ko'zdan g'oyib bo'lidi.

Tosh juvonning qaddi-qomatiga bir qarab qo'ydi-yu, kulimsirab Tarlonning ro'parasidagi kresloga kelib o'tirdi.

- Maishatning beliga tepdim shekilli? - shunday deya eshik tomona ishora qildi. - Xonimning kayfiyati buzildi.

- E-e, uni qo'yaver, eski paypoqdek gap, - kului Tarlon stolcha ustidagi qadahlarga konyak quyarkan, - istalgan paytda yechib, axlatga tashlab yuboriladi. O'zingdan gapir! Ishlar qalay?

- Chidasa bo'ladi, - Tosh shunday deya qadahlardan birini olib, bir ko'tarishda bo'shatdi-da, likopchadagi parraklangan limondan og'ziga solarkan, Tarlonga qaradi, - chaqirtirgan ekansan, tinchlikmi?

- Tinchlik, tinchlik, - Tarlon sirli kulimsiradi. - Shundoq o'zim. Bir basharangni ko'rgim kelib qoldi...

- Nimasini ko'rasan? - iljaydi Tosh labiga sigaret qistirar ekan. - O'sha bashara, o'sha turq!..

Ular bir-birlariga ma'noli qarab, kulib yuborishdi. Keyin bir lahma jim qoldilar.

Tosh juvonning qaddi-qomatiga bir qarab qo'ydi-yu, kulimsirab Tarlonning ro'parasidagi kresloga kelib o'tirdi.

- Maishatning beliga tepdim shekilli? - shunday deya eshik tomona ishora qildi. - Xonimning kayfiyati buzildi.

- E-e, uni qo'yaver, eski paypoqdek gap, - kului Tarlon stolcha ustidagi qadahlarga konyak quyarkan, - istalgan paytda yechib, axlatga tashlab yuboriladi. O'zingdan gapir! Ishlar qalay?

- Chidasa bo'ladi, - Tosh shunday deya qadahlardan birini olib, bir ko'tarishda bo'shatdi-da, likopchadagi parraklangan limondan og'ziga solarkan, Tarlonga qaradi, - chaqirtirgan ekansan, tinchlikmi?

- Tinchlik, tinchlik, - Tarlon sirli kulimsiradi. - Shundoq o'zim. Bir basharangni ko'rgim kelib qoldi...

- Nimasini ko'rasan? - iljaydi Tosh labiga sigaret qistirar ekan. - O'sha bashara, o'sha turq!..

Ular bir-birlariga ma'noli qarab, kulib yuborishdi. Keyin bir lahma jim qoldilar.

- Sen o'g'il bolasan, Tosh, - dedi Tarlon undan ko'z uzmay o'tirarkan, chuqur tin olib, - seni mardliging, to'g'riling, hech nimadan tap tortmasliging uchun yaxshi ko'raman. Senga ishonsa bo'ladi.

- Eraklar bir-birini maqtasa yarashmaydi, - dedi Tosh ko'ngli nimanidir sezib, - maqsadga ko'ch!

- Maqsad shuki... - Tarlon shunday deya lablarini qimtib qo'ydi, - O'zingning ham xabaring bo'lsa kerak... Seni qidirib yurishibdi.

Hamma melisaxonalarga surating yopishtirib tashlangan.

- Bilaman, - dedi Tosh boshini egib.

- Bilihsning o'zi kamlik qiladi. Sharoitga qarab ish qilish kerak. Qachongacha kalamushdek biqinib yurmoqchisan?

Tosh noma'lum nuqtaga tikilgancha indamay o'tirardi.

- Men senga oldin ham aytgandim, - Tarlon sigaret kulini qoqarkan, gapida davom etdi, - O'sha rejissyorga bekor tekkansan. Mana endi o'sha hezalak xuddi birov zo'rlab qo'yan shallaqi xotindek to's-to'polon qilib yuribdi. Hali melisaga arz qilgan... Hali sen

haqingda maza-bemaza gap-so'zlar tarqatgan...

- Asli o'shanda o'ldirib qo'yaqolmaganimga achinaman, - uning gapini bo'lib, Tosh taassuf bilan bosh chayqadi.
- Bunaqa bemaza gapni gapirma, - uni jerkib tashladi Tarlon, - ikki yil o'tirib chiqqanining kamlik qilayaptimi senga? O'zing bundoq ochilib gapirmasang! Jim yuraverasan...
- Tosh unga nimadir demoqchi bo'lгandi, Tarlon qo'lini siltab to'xtatdi.
- Bilaman, uchruganga dardingni aytib, diydiyo qilib yurishni yoqtirmaysan. Shuning uchun ham seni hurmat qilaman. Aytmasang ham, hammasini o'zim aniqlab oldim.
- Tosh unga hayron bo'lib qaradi.
- Ha, bilasan-ku, razvedkam qattiq ishlaydi, - iljaydi Tarlon. - Qanaqadir ashulachi qizni deb o'sha rejissyorga qo'l ko'targaningga sira aqlim yetmayapti. Sen bunaqa mayda emasding shekilli?
- Qanaqadir ashulachi qiz emasdi u, - dedi Tosh tomog'iga nimadir tiqilgandek xirillab.
- Kim bo'lmasa? O'ynashingmi?
- Yo'q, singlim Zumradning dugonasi edi, - dedi Tosh o'ychan ohangda, - ikki oycha avval kechqurun oldimga yig'lab keldi... Farid degan bir rejissyor shilqimlik qilib, tinchlik bermayotganini aytди.
- Nima, zo'r lab qo'yibdim? - kinoyali jilmaydi Tarlon undan ko'z uzmay.
- Yo'q, - bosh chayqadi Tosh, - Hollivudda aktrisalar to'shak orqali ekranlarga chiqishadi debdi.
- Bu nima degani? Hollivudning nima aloqasi bor ekan? - daf'atan tushunmadi Tarlon.
- Maraz bu gapi bilan "Bir kecha qo'ynimda yotasan... Menga o'ynash bo'lasan... Keyin seni televideniega olib chiqaman, kontsertlar programmasiga kiritaman. Kliplarga tushasan, videokassetalar tayyorlataman" demoqchi bo'lgan.
- Ashulachi qiz shunaqa chiroylimi? - unga sinovchan tikildi Tarlon.
- Ha. yomonmas, - dedi Tosh yana sigaret tutatib, - hali yosh. Endi o'n to'qqiz yo yigirmaga to'ladi. Talantli qiz deyishadi. Singlim bilan bir sinfda o'qishgan. Yaqin dugonasi...
- Buni aytding, - dedi Tarlon sabri chidamay, - keyin-chi?
- Keyin, o'sha qiz...
- Oti nima o'zi? Barno ekanmi?
- Ha, - dedi Tosh taajjubini yashirmay, - O'sha qiz "menga yordam bering, jonimdan to'ydirib yubordi" deb yig'ladi. Otasi nogironlar aravachasida yuradigan bechoraholgina odam ekan. Shundan keyin rejissyor bilan gaplashib qo'yishga to'g'ri keldi...
- Uni so'ymoqchi, dorga osmoqchi bo'libsanmi?
- Bo'limgan gap. Buni uning o'zi to'qib chiqqagan, - dedi Tosh jahl bilan.
- Bilmadim, - yelka uchirib qo'ydi Tarlon, - har holda, menga yetib kelgan ma'lumotlarga qaraganda, u melisaxonaga shunaqa deb yozgan.
- U iflosga qo'limning uchini ham tekkizmadim, - davom etdi Tosh. - Faqat sheriklarim bilan kechasi u dam olib yotgan uyga bordik. Karovatga qo'l-oyoqlarini bog'latdim. Keyin og'ziga paypog'ini tiqib, ustidan bir chelak benzin septirdim...
- Oshirib yuborgan ekansan, - kulib yubordi Tarlon.
- Aslida bu ham kam unga, - dedi Tosh lablarini qonatgudek tishlab.
- Keyin-chi?
- Keyin... Keyin ustiga benzin sepib, gugurt chaqdim, - dedi Tarlon o'sha manzarani ko'z oldiga keltirib. - U bo'lsa xuddi tug'ayotgan xotindek pitirlab, ko'zlarini kosasidan chiqib ketay dedi. Yonib turgan gugurt cho'pini ustiga tashlasam bo'ldi edi...
- Unga shafqat qilgansan, shunaqami? - jilmaydi Tarlon.
- Yo'q, - Toshning ovozi bo'g'iq chiqdi, - osongina o'lib, qutulib ketishini xohlamadim. Azoblanib yurishini ko'rgim keldi. "Bundan keyin biron qiz yoki ayloga bir og'iz gapirsang, shashlik qilib, kuydirib tashlayman. Kulingniyam topisha olmaydi" dedim. Shu xolos...
- Shu xolosmish! - bosh chayqadi Tarlon. - Uni o'lgandan battar qilib qo'yib...
- Asli o'lishi kerak edi, - dedi Tosh alam bilan.
- Balki o'shanda ustingdan arz qilib yugurib yurmagan bo'larmidi? Hay, mayli! - Tarlon o'rnidan turib, qo'llarini bir-biriga urdi, - bo'lar ish bo'lgan. Lekin melisa senga qidiruv e'lon qilgani chatoq. Mayli, ko'p siqilma. Buni o'zim tinchitishga harakat qilaman.
- Keragi yo'q, - dedi Tosh tishlarini qisib, - boshpana berib turganingni o'zi katta gap. Ishlarim sal tinchisa, ketaman. Rossiyagami, Qozog'istongami... U yog'i bir gap bo'lar.
- Ha, u yodda "Tosh degan "avtoritet" qachon kelarkin?" deb seni quchoq ochib, kutib turishibdi! - dedi Tarlon ko'zlarini yonib, - bunaqa ahmoq gaplarni qo'y. Aytmoqchi, o'sha rejissyorni ko'rdim. Faridmidi oti?
- Ha.
- Yuragi yomon bo'lib qolibdi, - iljaydi Tarlon, - kasalxonada yotib chiqibdi. Yurganda boshi bir tarafga qiyshayib-qiyshayib ketadigan kasalga uchrabdi. Nervi ishdan chiqqan bo'lsa kerak!.. Innaykeyin, ayollarni ko'rsa teskari qarab o'tarmish... Kulib yuborishdi.
- Har holda, ehtiyyot yaxshi, - Tarlon birdan jiddiyashdi. - Do'stdan dushman ko'p, buni bilasan. Bo'lmasa menga shu axlatxonada ishlab, nima zaril? Bir chekkada, xilvatda bo'lгani uchun yuribman. Negaligini tushunarsan?
- Tosh ha degandek bosh qimirlatdi.
- Bo'pti, endi maqsadga ko'chaylik, - Tarlon Toshning yelkasiga qo'lini qo'ydi, - men bor ekanman, hech narsadan cho'chima, og'ayni. Seni ularga yem qildirib qo'ymayman. Aytmoqchi, yigitlar uyingga borib kelishdi...
- Xabarim bor, - deb qo'ydi Tosh sekin.
- Onang ham, singling ham seni uzoq safarda, biron mamlakatda tijorat qilib yuribdi deb o'ylasharkan, - xushnud ohangda gapida davom etdi Tarlon. - Bu yomon emas. Demak, hech kim sening bu yerda, Jinariqda ekanligingni bilmaydi. Xullas, yigitlar uyingga bir qopdan un, guruch, kartoshka, piyoz, yana allambalolar olib borib, "Tosh aka berib yubordi. O'zi tez orada kelib qoladi" deyishgan.
- Rahmat senga, - dedi Tosh unga minnatdorona nigoh tishlab.
- Yo'q, men senga buni minnat qilayotganim yo'q, - dedi Tarlon qo'llarini orqaga qilgancha xonada u yoqdan-bu yoqqa yurarkan. - Biz og'aynimiz, shunaqami? Do'stmiz, hamkasbmiz, to'g'rimi? Hamisha bir-birimizni qo'llab yashashimiz kerak. Kel, shuning uchun beshta-beshta olamiz!

U shunday deya stolcha yoniga borib, qadahlarg'a "Brendi" quydi-da, bittasini uzatdi.

- Bir vaqlar Sibir taraflarda lagerda bo'lganimda bir narsani kuzatganman, - gapida davom etdi Tarlon qo'lidagi qadahda chayqalib turgan ichimlikka tikilgancha. - Bilasan, u yoqlarning shamollari, bo'ronlari yomon bo'ladi. Shuning uchun daraxtlarni bir-biriga yaqin, zinch qilib ekisharkan... Tushunayapsammi buni? Daraxtlar qattiq shamolda sinib ketmasligi uchun shunaqa biri-biriga suyab o'stirilgan. Ular yiqilsa ham, yonidagilarga suyanib qolarkan...

- Yaxshi gap ekan, - dedi Tosh havas bilan boqib.

- Kel, shuning uchun olaylik. Biz ham o'la-o'lguncha o'sha daraxtlarga o'xshab bir-birimizni suyab yashaylik! Ular qadahlarni to'qishtirib ichishdi. Limon parraklaridan gazak qilishdi.

- Yaxshi gap aytayapsan-u, lekin baribir haliyam maqsadga o'tmading! - dedi Tosh og'aynisiga yer ostidan qarab qo'yib.

- Maqsadga shoshilma, - kuldi Tarlon, - undan ko'ra ayt, nega Qorani urding?

Tosh hayron bo'lib qoldi.

- Darrov qayoqdan bila qolding?

Tarlon yana kului.

- Men senga boy a razvedkam qattiq ishlaydi degandek bo'ldim shekilli?

- O'zidan chiqdi, - dedi Tosh xo'rsinib. - Agar yana bir marta yuvilmagan qoshiqdek o'ziga aloqasi yo'q narsaga aralashaversa, mendan o'pkalab yurmasin. U sirpanchiq bola. Xoin. Men bunaqa shiltalarga ishonmayman!

- Yaxshi-yaxshi, - dedi Tarlon kulimsirab, - bilarkansan... Lekin bilganingni bildirma. Ko'r! Ko'rmagandek yur! Eshit! O'zingni eshitmaganga ol! Senga necha marta aytaman buni! - u Toshning avzoyi o'zgarayotganini sezib, yelkasiga musht urib qo'ydi. - Bo'pti, tumshayaverma! Kel, endi maqsadga ko'chaylik. Sen endi bunaqa ishlarni qo'y, og'ayni. Kissavurlik, birovlarning uyini tunash bilan xo'p shug'ullanding. Endi bunaqa ishlar seming avtoritetingga yarashmaydi...

Tosh og'aynisi qandaydir muhim bir narsani aytmoqchi ekanligini sezib unga tikildi...

* * *

Malla bilan Chittak Chorsu bozori oralab borishar, vaqt peshindan oqqaniga qaramay bozor gavjum, chumolidek to'zg'igan odamlar orasidan yurish ham, o'tish ham qiyin edi.

- Bu arining uyasida chol bilan kampirni topishni ayt endi! - dedi Chittak lablarini cho'chchaytirib.

- Toshning gaplarini eshitding-ku? - dedi Malla jiddiy ohangda. - Topish kerak!

- Allaqachon pulim yo'qoldi deb dod-voy qilib yurgan bo'lishsa-chi? - atrofiga o'g'rincha nazar solib qo'ydi Chittak.

- Yo'q, - dedi Malla, - hech gap bo'limgan. Sezishmagan. Bo'lmasa "hidi" kelardi.

Ular yon atroflaridagi odamlardan ko'z uzmay ketib borisharkan, Chittak yana gap qotdi:

- Tosh Qorani yomon urdi-a?

- Sen ham shunaqa kaltak yemay desang, bidirlayvermay, tezroq yur! - qovog'ini uydi Malla.

Bozorlarning pana-pastqamlarini o'g'rilarchalik yaxshi biladigan odam yo'q deganlaricha bor. Ular chorak soat o'tar-o'tmas yo'l chetida yetaklashib borayotgan chol bilan kampirni topishdi. Chittak cholning qo'lidagi sumkadan pul tugilgan ro'molchani qanday chaqqonlik bilan olgan bo'lsa, shunday epchillik bilan joyiga solib qo'ydi. Bunga hatto Malladek tajribali o'g'ri ham qoyil qoldi.

Buni sezgan Chittak mammun iljayib qo'ydi:

- Profession de fua!..

Kulishdi.

Ular bozordagi son-sanoqsiz rastalar oralab, odamlarga turtilib-surtilib qaytisharkan, dugonasi bilan kulishib kelayotgan, sochlari laylakuya, qaddi-qomati kelishgan satang bir xonim bilmasdan Mallaning oyog'ini bosib oldi va hali uzr so'rashga ulgurmay, Malla uni yelkasi bilan turtib yubordi. Xonim oh degancha nariga uchib ketdi. Agar shu lahzada Chittak ayolning bilagidan ushlab qolmaganda, oyoq ostiga yiqilishi aniq edi.

- Idiot! - dedi xonim lolaqizg'aldoqdek qilib bo'yagan lablarini burib va Chittakka qarab shirin jilmaydi:

- Mersi!

- Mersi, pardon, madam, - hirilingadi Chittak va ayolning bo'ynidagi qiyshaygan sharfini to'g'rilab qo'yib, Mallaga ergashdi.

- Ayol kishigayam shunaqa qo'pollik qiladimi? - dedi nariroqqa o'tishgach.

- Ayolmas, qirchang'i-ku! - xo'mraydi Malla. - Shunaqalarni ko'rsam, ko'nglim ayniydi...

Ular shu taxlit eski shahar tarafga o'tib borisharkan, Chittak afsus bilan bosh chayqadi:

- Shundoq qutlug' joydan quruq chiqib ketayapmiz-a?

- Bo'lmasa, ana, yana o'sha chol-kampirning orqasidan chop! - ishshaydi Malla uni mazax qilib.

- Juda bo'limganda, mana buning ikkinchisini ham olganimda mayliyi, - iljaydi Chittak kafti orasidagi besh so'mlik tangadek chiroyli tilla zirakni ko'rsatib.

- Qaerdan olding? - hayratini yashirolmadi Malla.

- Mersi madamdan! - dedi Chittak boshini orqaga irg'ab.

- Boya suyab qolganingda shilib bo'lgan ekansan-da? - sheringining epchilligiga hayron qoldi Malla.

- Nima, tep-tekinga suyab qolaveradi deb o'ylaganmiding?

- Ha, senga gap bo'lishi mumkin emas. Tarlon aka seni bekorga erkalatmaydi...

- U kishining shogirdiman-da, - dedi Chittak maqtanib.

Ikki o'g'rivachcha shu taxlit bekat tarafga ketisharkan, tepada, bozor o'rtasidagi zinalarda turgancha o'zlarini kuzatayotgan boshqa sheriklari - Hasanni sezishmadi...

* * *

- Gap bundoq, - dedi Tarlon Toshga sinovchan tikilib, - endi mayda-chuyda o'g'irliklarni yig'ishtir. Yosh bola emassan. Kattaroq ishlarga qo'l urishing kerak.

- Masalan? - dedi Tosh o'g'riboshidan ko'z uzmay o'tirarkan.

- Bir odamdan shikoyat tushdi, - dedi Tarlon o'nidan turib yana xonada u yoqdan bu yoqqa yurarkan, - yaxshi odam. Temiryo'lda ishlaydi. Familiyasi Sobitov. Boshqa shaharlarga borib-kelib yurishlarimizga foydasi tegib turadi. Shu akaxonimizga yordam kerak.

Tosh gapning davomini kutib, indamay o'tiraverdi. Tarlon esa buni o'zicha tushundi shekilli, izohlashga tutindi:

- Men o'zim bosh qo'shgan bo'lardim. Xabaring bor... Hozir har qadamimni kuzatib turishibdi. Shuning uchun seni tanladim. Xullas, o'sha Sobitovning uchta o'g'li bor. Kattasini uylantirib, "dom" olib bergen. U xotini, bolalari bilan alohida yashaydi. Akaxon qolgan ikkitasi bilan turarkan. Endi o'rtanchasini uylantirib, hovli-joy qilib bermoqchi bo'lgan. Arzon, qulay joy surishtirgan. Topilgan. "Rohat" ko'li tarafdan to'rt sotixli, imorati chala bitgan uy chiqqan. U a'zamxon degan bir fermerga qarashli ekan. Savdo-sotiq bo'lib o'tgan. Sobitov og'zi qulog'ida xursand, uning qo'liga kelishilgan ellik ming dollarni qistirgan. Qarabsanki, chuv tushgan...

Tosh qanaqasiga degandek, Tarlonga yalt etib qaradi.

- Ma'lum bo'lischicha, o'sha uy-joyning hujjalari chatoq, imorat noqonuniy qurilgan, hatto chizmasi ham BTIda tasdiqlanmagan. Buning ustiga a'zamxoning ukasi bilan o'rtada talash joy ekan, - kulimsiradi Tarlon. - Sobitov shu yerda g'o'rlik qilgan. Ishni boshidan puxta qilmagan. Endi esa pulini qaytarib ololmay yig'lab yuribdi.

- Shuni olib berish kerakmi? - dedi Tosh o'g'riboshining maqsadini tushunib.

- Ha, - bosh irg'adi Tarlon, - temiryo'lchi Sobitov buning uchun o'n ming dollarдан kechmoqchi. Qolaversa, hali bizga foydasi tegadigan odam. Biron qo'shni davlatga chiqib ketayotganimizda qo'llab yuboradi...

"Ana shunisi ayni muddao" ko'nglidan o'tkazdi Tosh o'zining ko'pdan beri boshqa yoqlarga bosh olib ketish rejasini eslab va Tarlonga qaradi:

- Qachonga?

- Iloji boricha tezroq, - dedi Tarlon. - Men Sobitovga shovqin solmaslikni, melisaga arz qilmaslikni tayinladim. a'zamxon aferis hozir Qibraydag'i dachasida dam olayotgan ekan. Mana bu yerda manzili yozilgan, - u shunday deb kurtkasi cho'ntagidan buklrog'liq qog'oz olib uzatdi. - Yoningga kimni olish o'zingning ishing. Mallanimi, Chittaknimi...

- Yo'q, Hasan-Husanni olaman, - dedi Tosh o'rnidan turib, - ertaga yo'lga chiqamiz.

- Iloji boricha ehtiyoj bo'l, - dedi Tarlon ham qo'zg'alib. - Esingda bo'lzin, sen qidiruvdasan. Niqob kiyib olish eslaringdan chiqmasin!

- Tushunaman. Xavotir olma, - dedi Tosh, - tong otmasdan yo'lga chiqamiz.

- Unda oq yo'l, - Tarlon shunday deya yana qadahlarga konyak quya boshladi.

- Yo'q, rahmat. Boshqa ichmayman.

- Ol, ich! Bunaqa xayrli ish uchun ichilsa arziydi, - qadahni uzatdi Tarlon. - O'n ming dollar ham yerda yotadigan pul emas. Qani oldik!

Qadahlarning nozik jarangi burchakdagi magnitofondan taralayotgan yoqimli kuyga yo'g'rilib, allaqanday sirli ohangga aylanib ketgandek bo'ldi...

* * *

Zumrad uylariga saharlab kelgan leyttenant Sharipovni kuzatib qo'yib, uyg'a qaytib kirarkan, ayvon derazasidan shu tomonga qaragani bilan yuz-ko'zlaridan nima bo'lganini anglay olmagani sezilib turgan onasiga ko'zi tushib, g'alati bo'lib ketdi.

- Nima gap ekan, Zumrad? - sochlari barvaqt oqarib, yuzlariga erta ajin tushgan onasi bir nuqtaga tikilgancha so'radi. - Melisami?

- Yo'q, - bosh chayqadi qiz, - O'g'lingizning ishxonasidan. Toshpo'lat akamning o'rtog'i... - u shunday deb gap boshladi-yu, keyin nima deyishini bilmay, chaynaldi. - Kecha kartoshka-piyoz, un-guruch olib kelib berishuvdi-ku, o'shalarning bittasi. Bir xabar olib o'tay deb kiribdi. Yo'li shu tomonga tushib qolgan ekan...

- Baraka topishsin, iloyim, - dedi ona hamon tek qotgancha kiprik qotmay turarkan. - Toshpo'lat akang yaxshimikan ishqilib?

- Yaxshi. Xavotir olmanglar dedi, - shoshildi Zumrad, - hozir uzoqda ekan. Tez orada borib qolaman debdi, - dedi yana u ko'zlariga quyilib kelayotgan yoshni yutib va onasi tomon yurdi. - Kiring, o'rningizga kiring, oyi. Nega darrov chiqib oldingiz? U ko'zlar ojiz bo'lib qolgan onasini qo'ltiqlab o'rniga olib kirib o'tqizar ekan, ona uning yuz-ko'zi, yelkalarini silab, titroq tovushda dedi:

- Ko'nglim g'ash, bolam. Akangdan xavotir olayapman...

- Voy, nega unaqa deysiz? - Zumrad yolg'ondan kuldil. - Ana, kecha qancha narsa yuboribdi. Pul ham jo'natibdi. Ming dollar-a? Hazilakam pul emas bu!

- Umridan baraka topsin, - ona siniq tovushda farzandlarini alqay ketdi, - Toshpo'latning boshi toshdan bo'lsin... Ikkovlaringning to'ylaringga yetkazsin, qizim!..

Zumrad onasini o'rniga yotqizib, u yaxshi ko'radigan yagona ovunchoq - kichkina priyomnikni yostig'i yoniga yoqib qo'ydi-da, hovliga chiqdi. Yugurgancha oshxonaga kirdi, o'pkasi to'lib, qo'llari bilan yuzini to'sgancha unsiz yig'lab yubordi.

"Bu qanday ko'rgulik? Buncha peshonamiz sho'r bo'lmasa? Qanday gunohimiz uchun bunaqa kunlarni ravo ko'rayapti xudoyim? ..".

Zumrad es-es biladi. Juda yaxshi, ahil-inoq yashashardi. Ularning oilasiga hammaning havasi kelardi. Otasi taksi haydar, onasi allaqaysi nashriyotda matn teruvchi bo'lib ishlardi.

...Kech kuz edi. Kunlarning birida bir nechta odam ko'chadan bir kishini yomg'irpo'shda ko'tarib kirib kelishdi. Keyin bilsa, otasi ekan. Mashinasida jarga uchib ketib, qovurg'alari sinib, boshi qattiq jarohatlanibdi. Dod-voy boshlandi. "Tez yordam" keldi.

Militsiya. Oq xalatlki kishilar otasini brezent zambilga solib olib chiqib ketayotganlarida otasi onasini imlab chaqirdi va unga nimadir deb shivirladi. Keyin bilsa, o'zi o'lim talvasasida yotaturib, "O'zingni, bolalarni ehtiyoj qil, Xosiyat" degan ekan. U o'sha kecha kasalxonada vafot etdi. Operatsiyadan chiqmadi...

Hammasi shundan keyin boshlandi. Onasi yozuv mashinkasi ustida uzun kechalarini bosh ko'tarmay yozgani-yozgan edi. Keyinroq bir o'zi bir nechta odamning o'rniga ishlaydigan bo'ldi. Musahhihlikni ham oldi. Ishdan keyin qolib, nashriyot binosini supurib-sidirib, farroshlik ham qildi.

Zumrad boshlang'ich sinfda o'qirdi o'shanda. Maktabni bitirish arafasida turgan Toshpo'lat akasi esa oiladagi yo'qchilikni, parokandalikni ko'rib, o'qishni tashladi. Sabzavot bazasiga yuk tashuvchi bo'lib ishga kirdi. Ko'p o'tmay uni ikki yashik pomidor o'g'irlaganlikda ayblab, ishdan haydashdi.

Shundan so'ng anchagacha ko'chada sandiraqlab yurdi. Allaqayoqlardan pul topib keladigan bo'ldi. Zumrad keyin bilsa, kissavur bolalarga qo'shilib ketgan ekan. Buni shundoq ham ezilib-sitilib yurgan, kecha-kunduz mashinka chiqillatib, ko'zlar borgan sari xiralashib borayotgan onasiga bildirmadi.

Bu orada yoz keldi. Toshpo'lat akasi allaqayoqlardan eski velosiped topib kelib tuzatdi. Pochtachilikka ishga kirdi. Keyin ma'lum bo'lishicha, u pochtachilik bahona o'g'rilarga odamlarning uyi, xonalari qanday joylashgan, qay paytda uyda kim bo'lishini aniqlab berib yurarkan.

Bir kuni melisalar uni ko'chada ushlab, olib ketishdi. Ona-bola chirqillagancha qolishdi. Olti oy deganda mutlaqo o'zgarib qaytdi. Endi uni tanib bo'lmas, ko'zları bejo, qandaydir asabiy bo'lib qolgandi.

Oradan ko'p o'tmay Jinariq tarafdan bir paytlar otasi haydab borayotgan taksining orqasidan o'zining "Volga"si bilan urib, jarga uchirib yuborgan va qandaydir yo'l bilan jazodan qutulib qolgan odamning o'z mashinasi ichida yondirib yuborilgani haqidagi sovuq xabar tarqaldi.

Buni ham Toshpo'latdan ko'rishdi. Yana qamalib ketdi. Ikki yil deganda chiqdi.

Asablari qaqqash, g'am-qayg'u ezib tashlagan, mudom xatga tikilavergan onasining ko'zi esa o'tmay qola boshladi. Bu paytda tibbiyot kollejida o'qiyotgan Zumrad toza yelib-yugurdi, foydasi tegmadi. Onasi yarim yildan keyin ko'rmay qoldi.

Toshpo'lat akasi qamoqdan qaytgach, hech qaerga ishga kirmadi. Yana avvalgi hamtovoqlariga qo'shilib ketdi.

Akasining g'alati odati bor edi. Qaerda bo'lmasin, o'zi bir tiyinsiz, piyoda yursa ham ro'zg'orni butlab qo'yari, go'shtmi-sabzimi, ummi-guruchmi olib kelib tashlardi. Keyin juda ko'ngilchan, kamgap, og'ir yigit edi.

Bir kuni aka-singil gaplashib qolishganda u qandaydir qabul punktidan, bazada ishlayotganini aytib qoldi. Ammo qanaqa joy, qaerda joylashgan, u yerda nima ish qiladi, bu haqda lom-mim demadi...

Ikki oy burun esa... Zumrad o'sha kunni eslasa, hali-hanuz butun vujudiga titroq yuguradi.

O'sha kuni kechqurun konservatoriya o'qiyotgan, yosh xonanda sifatida og'izga tushib qolgan yaqin dugonasi Barno kirib keldi. Yig'lab-siqtadi. Toshpo'lat akasiga qanaqadir Farid Rahimov degan rejissyor tegajog'lil qilayotgani haqida qaqqash gapirdi. "Agar sizdaqa akam bo'lganda, bu yerga kelib o'tirmasdim, - dedi. - Men ham Zumradga o'xshagan singlingizman-ku! yoYordam bering!" deya yolvorarkan, oxirida "Bo'lmasa, o'zimni o'diraman" deb qo'shib qo'ydi.

Toshpo'lat akasi Barnoni yaxshi bilar, yaxshi ko'rар, uning otasini ham tanirdi.

Xullas, yoniga ikki shergini olib, o'sha shilqim rejissyorning uyiga bostirib kiribdi. Ustiga bir chelak benzin sepib, yoqib yubormoqchi bo'libdi.

O'sha-o'sha Faridning qorasi o'chdi-yu dahmazasi keyin boshlandi. U ustma-ust shikoyat qilavergandan keyin, militsiya Toshpo'lat akasining iziga tushdi. Zumrad Farid Rahimov degan o'sha qarimsiq rejissyorni o'sha kezlarda ko'rdi. Uning boshi bir tarafga qiyshayib, u yoq-bu yoqqa qimirlab turadigan bo'lib qolgan ekan. Tibbiyot kollejida o'qimaydими, buning nimaligini sezdi...

Toshpo'lat akasi uydan qochib ketdi. O'n-o'n besh kundan keyin uyga qo'ng'iroq qildi. "Men safarga ketayapman. Xavotir olmanglar. Onamga qara" dedi-yu g'oyib bo'ldi qoldi. Oradan ikki oy o'tdi. Militsiyadagilar toza qidir-qidir qilishdi, ammo akasining izini ham topisholmadi.

Faqat... Faqat ikki-uch kun burun Zumrad onasiga dori-darmon olib kelayotib, yo'l chetidagi mashinada kim bilandir gaplashib o'tirgan tilla tishli, qop-qora yigitni ko'rdi. Yigit tanishdek tuyuldi. Ammo qaerda ko'rganini eslayolmadı. Keyin, aniqrog'i bugun kechasi akasining kiyimlarini taxlayotib, uning ba'zi suratlarni tartibga solayotib bir rasmga ko'zi tushdi va g'alati bo'lib ketdi. Unda besh-olti yigit pivoxonadami, qahvaxonadami, xullas dasturxon atrofida o'tirishar, akasining yonida Zumrad qaysi kuni ko'chada ko'rgan yigit ham iljayib o'tirardi...

O'sha kuni akasini izlayotgan leytenant Sharipovga qo'ng'iroq qildi. Bugun ertalabdan nozir yigitning kelishiga ham shu sabab bo'lgan edi aslida.

Bundan tashqari, o'n kuncha burun Zumradning tog'asi nevara to'yi qilgan va ertaga dasturxon yoziladigan kuni yarim kechada allaqayoqdan paydo bo'lib qolgan Toshpo'lat akasi bitta qo'y, bir qopdan un bilan guruch, pul tashlab, tog'asi-yu boshqalarni hayron qoldirib, yana qanaqadir mashinada g'oyib bo'lgan edi. O'sha kuni jiyانlaridan biri mashinaning "Damas" ekanligi, ammo qorong'ida uning rangini ajratib, nomerini ko'rolmaganini aytди. Bu narsa ham nozirga qo'l keldi. Hammasini so'rab-surishtirib yozib oldi. Toshpo'lat akasining bu ishiga hayron qolgani haqida gapirdi.

Yo'q, Zumradning akasini tutib berish niyati yo'q. Faqat uni ko'rish, onasi bilan uchrashtrish, tavbasiga tayanib, uyda bo'lishini xohlar, uylanishini, shundoq ham huvillab qolgan hovlisi yana to'lishini istardi xolos.

U leytenant Sharipovga ko'zda yosh bilan shular haqida gapirdi. Nozir yigit bo'lsa uning ko'ngliga dalda beradigan bir og'iz gap aytdi.

"Jarda mashinasi bilan yondirib yuborilgan va otanglarning o'limiga sababchi bo'lgan odamning qotili aniqlandi, - dedi sekin. -

Uni o'zining tug'ishgan ukasi o'ldirgan ekan... Aka-uka ko'pdan beri uy-joy talashib, yoqalashib yurisharkan. Bu yerda

Toshpo'latning aybi yo'q. Lekin baribir oppoq emas. U ichki ishlar bo'limining ro'yxitida turadi. Buning ustiga qochib yuribdi. Shuning o'ziyoq juda ko'p jinoyatlarda uning ham qo'li yo'qmikan degan shuhbaga asos bo'ladi. Ammo o'zi kelib boshqarmaga borsa hammasi boshqacha bo'lardi...".

Zumrad bu gaplarni eshitib, shunday yengil tortdiki, beixtiyor nozir yigitning bo'ynidan quchib oglisi kelib ketdi.

Shu kuni bir yig'lab, bir kulib vaqt o'tkazdi. Ammo bu gaplar haqida hech kimga hech narsa demadi...

Tarlon "qonundagi o'g'ri"lardan hisoblanmasa ham, jinoyatchilar orasida ozmi-ko'pmi o'z o'mniga ega kishilardan sanalardi. Aslida u allaqaysi bir akademikning o'g'li bo'lib, onasi o'lib, otasi yoshgina bir aspirant juvonga uylanganidan keyin uydan chiqib ketgan, o'sha-o'sha qaytib bormagandi. Keyin maktab-internatda o'qidi. Bezoriligi uchun u yerdan haydaldi. O'zidan katta kishilarga qo'shilib, Kajarov dashtlariga, qandaydir arxeologik ekspeditsiyaga yer qazuvchi, yuk tashuvchi bo'lib ketdi. O'sha yerdan xumcha oltin-kumush tangalar topilib qolib, sheriklari bilan talashib, bir arxeolog yigitning boshiga belkurak bilan urib o'ldirib qo'ydi. Aslida u o'zi urdimi, boshqa birovmi, aniq eslayolmaydi. Hatto organ xodimlari ham bunaqa vahshiyona ishni yoshgina o'spirin qilishi mumkinligiga shubhalandilar va shunga qaramay, boshqalarni qamoqqa, uni esa tarbiyasi og'ir bolalar koloniyasiga jo'natishdi.

Tarlonning ko'zi shu yerdan ochildi. Hayot jungliga o'xshagan bir ormon ekanligini, agar sen o'z ulushingni yulib ololmasang, boshqalar o'zingni ham burdalab tashlashlarini, hayotda yo zaring yo zo'ring bo'lishi kerakligini anglab yetdi. Taassufki, uning zar yo'q. Shuning uchun zo'rlikka zo'r berdi. Sport bilan shug'ullandi. Boksnii o'rgandi. Dzyudo, kikboksingga mehr qo'ydi va tezda butun koloniyani qo'nga oldi. O'zi tengi hamda yoshi katta o'spirinlar u yet desa yotadigan, tur desa turadigan bo'lishdi.

Shunday kunlarning birida u bir necha sheriklari bilan koloniya joylashgan posyolkadagi do'konga o'g'irlikka tushdi. Bor-yo'g'i

uch-to'rt shisha vino, besh-oltita konserva, kolbasa va non olishdi xolos. Ammo do'kon mudiri, qirq yoshlardagi tannoz xotin "Bir million so'mlik mahsulot o'g'irlangan. Seyfdagi besh yuz dollarni ham o'marib ketishgan" deb turib oldi. Buni bolalarning bo'yninga qo'ydi.

Tarlon va uning sheriklarini qattiq jazolashdi. Koloniya izolyatoridan bir qadam chiqarmay qo'yishdi va o'sha satang xotinning tuhmati unga yomon ta'sir qildi. Undan bir kuni qasos olishga qasam ichdi...

Oradan yarim yilcha o'tgach otasi koloniyaga kelib, uni olib ketmoqchi bo'lди. Ammo Tarlon rozi bo'lмади. Shunday kunlarning birida u yoniga ikki sheringini olib, o'sha do'konga bordi. Qanaqadir bayram arafasi, hamma o'zi bilan o'zi ovora bo'lib yurgan kezlar edi.

Satang mudir endi do'konni yopib, ichkarida o'ziga o'xshagan tannoz qizi bilan hisob-kitob qilayotgan ekan. Bostirib kirishdi. Satang dod-voy qilishga ham ulgurolmadi. Uni urib hushidan ketkazib, qizini og'zini bog'lab zo'rashdi. Keyin stol ustidagi dasta-dasta pullarni olib, to'rt tarafga qochib ketishdi.

Tarlonni oradan uch oy o'tgach, vokzalda ushlab olishdi. U xorij davlatlaridan biriga qochish payida yurgandi. Omadi kelmadni. Uni qamoqqa tiqishdi.

Bir paytlar o'zi bilan arxeologik ekspeditsiyada ishlab, tilla talashib qamalgan kishilar bilan shu yerda yana uchrashib qoldi. Ularning ikkitasiga qo'shilib, granit qazilayotgan kondan qochishga muvaffaq bo'lди. Bu safar Rossiya taraflarga yo'l oldi. Uni o'shayoqda qo'lga olishdi. Yana qamashdi va bu gal Sibirga yuborishdi. Qaytganida, oradan bir necha yillar o'tgan, aksiga olib shaharda qandaydir yomon jinoyat sodir etilgan bo'lib, unda ham Tarlonning qo'li bor deb yana qamoqqa tiqishdi. Ana shu yerda o'zi tengi Toshpo'lat degan yigitcha bilan tanishdi, ko'p o'tmay aka-ukadek bo'lib ketishdi.

Mana endi, o'shandan beri Tosh bilan birga. Endi u tulkidek ayyor, qoplondek chaqqon, ilondek aqlli bo'lib qolgan, o'tgayam-cho'qqayam o'zini behudaga uravermasdi.

Tarlon otasining o'limidan keyin o'gay onasining oldiga borib, o'zining haqini talab qildi. U esa Tarlonning ta'rifini eshitgan bo'lsa kerak, qo'rqqanidan yap-yangi "Jiguli"ning kalitini tutqazib, uydagi bor puli-yu tilla taqinchoqlarini chiqarib berdi. Shundan keyin Tarlon unga, agar miq etmay yursa, qayta uchrashmasliklarini ta'kidlab, chiqib ketdi.

Avvaliga do'kon ochmoqchi bo'lди. Keyin tinchgina qog'oz va bo'sh idishlar qabul qiladigan punktni qo'lga oldi. U bunaqa ko'z ilg'amas joylardan katta foyda qilish mumkinligini lagerda yurgan kezlariyoq eshitib, qiziqib qolgan edi.

Haqiqatan ham, xazinaga duch kelgandek bo'lди. Bir necha yuk mashinalari shaharning turli burchaklaridagi punktlardan barcha qog'oz chiqindilarini olib keladi. Tarlon shahar chekkasidan tanlagan maydonchada ular yollangan kishilar tomonidan tozalanib, ajratiladi. Keyin kerakli odamlarning o'zi qog'ozlarni kombinatga, shisha va plastmassa idishlarni qayta ishlash korxonalariga olib ketishadi. Chetdan qaraganda yoqimsizroq, uncha-muncha odam mensimayroq qaraydigan mashg'ulotga o'xshab ko'rindi-yu, aslida jaraq-jaraq pul!

Buning sirini faqat Tarlonning o'zi biladi. Buni hech kimga, hatto qadrtoni Toshga ham aytмаган. Ustiga-ustak shahardagi bir guruh o'g'rilarga ham shu yerdan boshpana berib, qabul punktinining ishchisi deb hujjatlashtirib qo'ygan. Ulardan ham yaxshigina cho'tal tushib turadi. Ba'zan bugun Toshga topshirganga o'xhash "razborka" larga ham aralashadi. Ammo bu ish juda qaltis.

Shuning uchun bu safar ko'p sinovlardan o'tgan Toshga topshirgani ham shundan. Boshqalarga ishonch yo'q.

Umuman olganda Tarlonning hayoti yomon emasdi. O'rikzorda ikki qavatl shohona hovli-joy, shahar markazida besh xonali kvartirasi bor, ammo shunga qaramay u ko'pdan beri biron mamlakatga bosh olib ketish xayolida yashardi. Shuning uchun pul yig'ar, shularni o'ylab kechalari uyqusi qochib ketar, na ichkilik, na tamaki, na nasha, na chertib-chertib, tanlab olib kelinadigan jononlar ham hovuridan tushira olmasdi...

Tarlon shularni xayolidan o'tkazgan ko'yi sigaret tutuniga ko'milib o'tirgan paytda stolcha ustidagi qo'l telefonini jiringlab qoldi.

Telefonni qulog'iga tutarkan, u tomondagi odamning ovozini eshitib, birdan avzoyi o'zgardi:

- Bu nima degan? Nega bilmaysan? Qurilishdan olgan bo'yog'-u kafellarni qog'ozga ko'mib, ustidan chiqindi bosinglar, vassalom... Shuniyam o'rgatishim kerakmi? - so'kindi u. - Qorovulga besh-o'n ming qistir. Ana bo'lmasa, qirq-ellik ming ber!

Undayam bo'lmasa, so'yib tashla! Javobini o'zing berasan! Bo'lди, tamom!..

U telefonni o'chirib joyiga qo'ydi-da, uf tortib, kresloga suyandi. Asabiylashib kresloni mushtladi.

- Oddiy narsaniyam eplolmaydi so'taklar! - dedi tishlarini g'ijirlatib. - Hammangni oyog'ingdan osish kerak o'zi, hezalaklar!..

Oldiga bambuk parda utilgan xonadan boya kirib ketgan juvon chiqib keldi va tamanno yurish qilib, unga yaqinlashdi. Tizzasiga o'tirib, navozish bilan yuz-ko'zlarini siladi.

- Sizga asabiylashish mumkin emas, shef! - dedi erkalanib. - Qanaqadir ahmoq odamlarning ahmoq gaplariga kuyunavermang, jonio!..

- Bu gaping to'g'ri, Tamara, - Tarlon shunday deya jilmaydi. Keyin ayolning tomog'idan o'pib, yuziga shapatilab qo'ydi, - bor, sen saunaga kirib tur, hozir boraman!

Ayol sekin o'rnidan turib, eshik tarafga yurarkan, Tarlon uning orqasidan xayolchan tikilgancha qoldi...

* * *

a'zamxonning dachasini topish qiyin bo'lмади. Faqat yo'l-yo'lakay bir nechta joyda turgan melisalargina Toshning g'ashiga tegdi. Haytovur to'xtatishmadi. Boz ustiga ertalabdan havosovub ketdi. Qulq-burunlarni achitib izg'irin esib turar, yo'lда Tosh, Hasan-Husan va haydovchi Styopa o'tirgan "Neksiya" dan boshqa mashinalar ham ko'p edi.

Chelak ko'tarib ketayotgan bir ayoldan a'zamxonning dachasini so'rashgan edi, u bu atroflarda ancha taniqli shekilli, ko'rsatib berdi.

O'ziyam allambalo, ertaklardagi qasrlarga o'xshagan dang'llama hovli ekan. Ikki qavatl shohona hovli-joy, shahar markazida besh xonali kvartirasi bor, ammoshunga qaramay u ko'pdan beri biron mamlakatga bosh olib ketish xayolida yashardi. Shuning uchun pul yig'ar, shularni o'ylab kechalari uyqusi qochib ketar, na ichkilik, na tamaki, na nasha, na chertib-chertib, tanlab olib kelinadigan jononlar ham hovuridan tushira olmasdi...

Tosh bilan Hasan sharpadek tovush chiqarmay ichkariga o'tishdi.

Itning irillagan tovushini, shovqinni eshitgan bo'lsa kerak, uy egasi chiroqni yoqdi. Butun hovli yorishib ketdi. a'zamxon deganlari shu bo'lsa kerak, yo'g'on gavdali, basavlat odam balkonga chiqib, u yoq-bu yoqqa qaradi. Keyin chiroq o'chdi. Hasan sekin eshikni taqillatdi. Yana chiroq yondi. Kimmingdir zinalardan tushib kelayotgan asabiy tovushi eshitildi. U ichkari eshikni ochishi bilan semiz baqbaqasiga Husanning hozirgina itni bo'g'izlagan, qon yuqi hali qotmagan dudama xanjari qadaldi.

- Ovozingni chiqarma! - dedi Tosh sekin.
 - Siz...larga nima k...kerak? - dami ichiga tushib ketdi a'zamxonning.
 - Uyda yana kim bor? - so'radi Hasan ovozini pasaytirib.
 - Hech kim yo'q... O'zim... - dedi a'zamxon angrayib.
 - Ichkariga kir, - dedi Tosh uning biqiniga musht urib.
- a'zamxon iргragancha yo'l boshladi, keyin baqirmoqchi, qo'ni-qo'shnilarни yordamga chaqirmoqchi bo'ldimi, deraza tarafga o'tgandi hamki, Toshning mushti uni yerga qulatdi.
- Og'ziga paypog'ini tiq! Kamari bilan qo'lini bog'la! - buyurdi Tosh shoshilib. - Keyin tepaga olib chiqinglar!..
 - Zum o'tmay og'ziga paypoq tiqilib, qo'l-oyoqlari bog'langan a'zamxon ko'zlarini ola-kula qilgancha yerda yotardi.
 - Gapni cho'zib o'tirmaylik, - dedi Tosh sovuqqina qilib, - temiryo'lchi Sobitovdan uy-joyni sotaman deb aldab shilib oлgan pulingni olib ketgani keldik. Bunaqa g'irromlik qilish yaxshi emas, amaki.
- a'zamxon nimalardir deb g'udrandi. Hasan xuddi jirkangandek, uning og'zidagi paypoqni sug'urib oldi.
- Menda hech qanaqa pul yo'q... - xirilladi jonholatda a'zamxon. - Hech qanaqa Sobitovni tanimayman!..
 - Unaqada eslatib qo'yishga to'g'ri keladi, - dedi Tosh va yigitlarga imo qildi.
- a'zamxonning og'ziga yana paypoq tiqildi. Husan qo'shni xonadan dazmol olib chiqib elektrga uladi, keyin Toshning ishorasi bilan a'zamxonning ko'ylagini ko'tarib, sap-sariq jun bosgan, semiz qorniga qo'ydi.
- a'zamxon ko'zlarini qinidan chiqib ketgudek bo'lib, pitirladi. Dazmol surilib yerga tushdi.
- Agar yana bir marta qilt etsang, dazmolni nafs basharangga qo'yaman! - dedi Tosh unga o'qrayib.
 - Dazmol yana uning qorniga qo'yildi va zum o'tmay a'zamxon tipirchilab xirilladi.
 - Og'zidan paytavasini ol-chi! - dedi Tosh.
- Hasan buyruqni bajarishi bilan u tupurib so'kindi:
- Bu... ishlaring uchun... javob berasizlar!
 - Avval sen bizning savolimizga javob ber, - dedi Tosh uning ustiga engashib, - gapir, pullar qaerda?
 - Pul yo'q, - dedi a'zamxon yuzini teskari burib.
- Tosh uning basharasiga musht tushirdi. a'zamxonning sap-sariq basharasi qip-qizil qonga bo'yaldi.
- Dazmolni bos! - shipshidi Tosh Husanga.
- Husan qizib turgan dazmolni shosha-pisha a'zamxonning qorni ustida u yoqdan bu yoqqa sura boshladi.
- Ol!.. Bo'ldi! - degandek xirilladi a'zamxon.
 - Avval pul! - dedi Tosh xotirjam tovushda.
- a'zamxon unga yeb qo'ygudek qarab, ichkari xonaga imo qildi va yorilib go'shtga aylangan lablari arang shivirladi:
- Shkafning tagidagi polning ichida...
 - Ichingdan pishgan ekansan, - dedi Tosh kulimsirab va uning og'ziga yana paypog'ini tiqib qo'yib, yigitlarga yordamlashgani ketdi.
- Shkaf surilib, tagidagi pol taxtalari ko'z ochib-yumguncha sug'urib tashlandi. a'zamxon rost aytgan ekan. Pol ostiga tunuka qoplab maxsus ishlangan joy naq xazinaning o'zi edi. Dasta-dasta pullar, tilla taqinchoqlar, javohirlar...
- Hammasi to'rvaga solindi.
- Bularning hammasini shunaqa muttahamgarchilik bilan, odamlarni qon qaqshatib topganmisan? - so'radi Tosh a'zamxonga ko'zlarini qattiq tikib.
 - a'zamxon nimadir demoqchi bo'lib g'o'ldiradi. Yana paypoqni olishga to'g'ri keldi.
 - Sobitovnikini olib... qolganimi joyiga qo'yinglar... - yolvordi u ko'zlar yoshlanib.
 - Bekorlarni aytibsan, - kinoyali iljaydi Tosh va uning ustiga engashdi, - joning qancha turadi o'zi?
- a'zamxon indamay ko'zlarini yumdi.
- Unaqada ellik ming dollar olib, qolgan hammasini og'zingga tiqib ketamiz, - dedi sovuq ohangda. - Hazm qilib yotaverasan!
 - Kerakmas ... - deya bosh chayqadi a'zamxon.
 - Nima kerakmas? Jonmi, pulmi? - tirjaydi Hasan.
 - Pul kerakmas... Tirik qolsam bo'ldi, - behol shivirladi a'zamxon kuygan qornini silab.
 - Agar bu ishning sal isi chiqsa, tamom! - shivirladi Tosh. - Dazmol hech nima emas, qizib turgan qoziqqa o'tqazib ketaman!..
- a'zamxon ko'zlarini nim yumib, xo'p ishorasini qildi.
- ...Ular yuzlariga tutgan niqoblarini yechib, qaytayotganlarida allaqachon tong otgan, tuman tarqalib, sharqdagi ko'kimtir tog'lar ortidan quyosh chiqa boshlagan edi...

* * *

Zumrad bilan Barro tuqli olish dardida toza shahar aylanishdi. Otchopar-u Chorsu bozorigacha borib kelishdi. Ikki dugona ko'pdan beri ko'rishmaganlari uchunmi, bir-birlarini sog'inishgan, shuning uchun sira gaplari tugamas, charchoqni ham sezishmasdi.

Nihoyat, Chorsu bozoridan chiqib kelayotganlarida Zumrad uzoqdan kimgadir tuyqus ko'zi tushdi-yu, ilonni ko'rgan baqadek to'xtab qoldi. Keyin Barnoni sudragandek bo'lib, "yur, yur" degancha, boshlab ketdi.

Uzoqdan odamlar orasida lip etib ko'riringan malla yigitchani qaerdadir ko'rgandek bo'lgandi, shu topda kuni kecha Toshpo'lat akasi bilan uning yelkasiga qo'l tashlab suratga tushgan o'spirin shu ekanligini xotirlab, beixtiyor orqasidan ergashdi.

Malla bilan Chittak ham ko'p o'tmay buni sezmay qolishmadi.

- Ketzorgan qushchalar ekanmi? - dedi Chittak tanglayini taqillatib.
 - Menga o'zi emas, tilla ziraklari bilan duri, anavisining agar tilla bo'lса soati kerak, - dedi Malla tishlari orasidan chirt etib tupurib.
 - Menga o'ziyam bo'laveradi! - hirengladi Chittak.
 - Ko'zdan qochirma! - shipshidi Malla eskishaharning achchiq ichakdek uzun, tor ko'chalari tarafga burilisharkan orqasiga qarab. - O'zlarini ham shu tomonga kelayotganga o'xshaydi...
- Ular shu yerda, xilvat torko'cha og'zida to'qnash kelishdi.
- Qalaysizlar, oppoq qizlar? - dedi Chittak ko'zlarini suzib.

- Siz so'ragandan beri yaxshi, - dedi Zumrad Malladan ko'z uzmay.
 - Balki bironqa kafega borarmiz? - dedi Chittak mahmadonagarchilik qilib.
 - Yur, Zumrad, ketaqolaylik, - qo'rqib ketdi Barno begona yigitchalarning bejo ko'zlariga ko'zi tushib.
 - Ketganlar qaytib kelmayapti, yaxshi qiz, - tirjaydi Malla Barnoning kelishgan qaddi-qomatiga suqlanib va yoniga yaqinlashdi, - mana bu dur chinakammi yo?..
 - Qo'lingni tort! - dedi Zumrad unga o'qrayib.
 - Hay-hay-hay! Sekinroq, yaxshi qiz, xuddi ovozingizni radiodek o'chirib qo'yaman-a? - u yoq-bu yoqqa xavotirlanib qarab qo'ysi Chittak va yonidan tugmachali pichog'in chiqardi.
 - Yaxshilikcha taqinchoqlarni yechasanlar, yo o'zim quloqlaringga qo'shib uzib olaman!
 - Zumrad voqeanning bunaqa tus olishini kutmagandi, dovdirab qoldi va indamay ziraklarini yechib unga tutqazarkan, Chittak shap etib uning bilagiga yopishdi:
 - Soat qolmasin, yaxshi qiz, soat!..
- Zumrad lablarini qonatgudek tishlab, soatni ham yechib berdi.
- Militsiyaga aytamiz, - dedi Barno yig'lagudek bo'lib bo'ynidagi marjonnini yecharkan. - Ma ol, maraz!
 - Melisaning prostoigamas, kattasiga aytin, ko'zidan! - iljaydi Chittak marjonnini olib chontagiga solarkan va sherigiga qaradi. - Ungacha biz Kanada chegarasigacha yetib olamiz!
- Malla sherigini tushundi va ikkovi kutilmaganda ikki tarafga qochib qolishdi. Zumrad shoshganidan qay birining ortidan quvishni bilmay, bir gangidi-yu keyin Malla qochgan tarafga yugurdi. Ammo yetolmadi. U jinko'chalar ichida g'oyib bo'lgan edi.
- Nega baqirmading? Nega indamay taqinchoqlaringni yechib berding? - alamidan qaqshadi Barno.
 - O'zing-chi, nega o'zing indamading? - dedi Zumrad rangi devordek oqarib.
 - To'g'risi, pichog'idan qo'rqedim, ulardan hamma narsani kutsa bo'ladi, - dedi Barno ko'zlari yoslanib.
 - Mayli, kelgan balo-qazo shularga ursin, - dedi Zumrad, - xudo bir asradi...
- Ular yana bekat tarafga kelisharkan, Barno hamon dugonasining g'ayritabiyy harakatlarini tushunolmay garang edi.
- Nega o'zing birdan shu o'g'rirlarning orqasidan ergashding, Zumrad? - deb so'radi u qayta-qayta.
 - Anavi mallasini kimgadir o'xshatdim, - dedi nihoyat Zumrad sekin. - Nazarimda, u Toshpo'lat akamninig qaerdaligini biladi.
 - Sen buni qayoqdan bilasan? - hang-mang bo'lib qoldi Barno.
 - Ko'nglim sezib turibdi, o'rtoqjon, - dugonasining yelkasiga bosh qo'yib yig'lab yubordi Zumrad. - Faqat sen marjoningga achinma, xo'pmi?
 - Yo'g'e, o'zi arzimagan pul turadi. Rangli shishadan yasalgan, - jilmaydi Barno, - chinakam dur bo'lganda, mana deb qo'liga berib qo'yarmidim?
 - Iltimos, faqat bu voqeani, bu gaplarni hech kimga aytma, xo'pmi? - yalindi yana Zumrad.
 - Xo'p-xo'p, faqat yig'lama.
 - Juda qiynalib ketdim, o'rtoq, judayam... - piqilladi Zumrad.
- ...Va ikki dugona bir-birlarini quchgancha so'zsiz turib qoldilar...

* * *

Qabul punktida ertalabdan asabiy vaziyat hukmron edi.

Kimdir chekayotgan sigaretini o'chirmay tashlab o'tganmi yo yuk olib kelgan haydovchilar aybdormi, ishqilib xalq orasida "Makulatura" deb nomlangan maydonga o't tushgan. Hovli etagiga tog'dek uyulgan tonna-tonna qog'ozlaru son-sanoqsiz baklashkalar gurullab yongan va ajdahodek ko'kka o'rlagan alanganing bir uchi punkt joylashgan imoratga ham yetib kelgan... Bu orada kimdir "chaqqonlik qilib" o't o'chiruvchilarni chaqirgan. Yong'in o'chirilgan. Lekin o't o'chiruvchilardan birining o'ligi topilgan...

Ana shu narsa vaziyatni yanada murakkablashtirib yubordi.

Shu kuni Tarlon qanaqadir yumush bilan saharlab Chimkentga ketgandi. Ertasiga kelib, tutaqib ketdi. Hammani to'plab, qisqagina "yig'ilish" o'tkazdi va bu ahmoqlikni kim qilganini aniqladi. "Makulatura" maydoniga kim o't qo'yanini aniqlab bo'lmadi-yu, lekin o't o'chiruvchini o'ldirgan o'zlarining odami - Qora bo'lib chiqdi...

Bir qaraganda uni ham ayblab bo'lmasdi. O't o'chiruvchilardan biri qo'lidagi yo'g'on shlangni sudrab yonayotgan eski binoga kirgan va kutilmaganda yerto'laga tushadigan aylanma zinani ko'rgan-u qiziqib u yerga tushmoqchi bo'lgan. Pastda esa Tarlonning "rezinidentsiya"si!..

Qora uni ko'rgan-u shu yerning o'zida orqasidan borib, boshiga temir quvur bo'lagi bilan urib o'ldirgan-qo'ygan...

Qisqasi, xuddi arining uyi buzilgandek bo'ldi.

Tarlon yoniga haydovchisi, Tamara va yana bir o'ynashini olib, qo'liga ilingan kerakli yuklar bilan shahardan chiqib ketadigan, boshqalar esa, ya'nii Tosh, Qora, Malla, Chittak va Styopa "Damas"da uning orqasidan Alvastiko'prik yaqinida, shahar chegarasida ko'rishishga kelishib, shosha-pisha tarqaldilar...

Vaqt juda ziq edi. Yigitlar ko'z ochib-yumguncha hammayoqni "tozalab" chiqishdi. Aksiga olib, "Damas"ning balloni bo'shab ketgan ekan, dam urishga to'g'ri keldi.

- Tfu, padariga la'nat! - so'kindi Tosh asabiyashib u yoqdan-bu yoqqa yurarkan dam urayotgan haydovchi bilan Hasan-Husanga qarab.

- Nasib qilsa, shest sekundda ketamiz, - dedi Malla qo'liga ilingan narsalarni sumkasiga joylarkan.

Boshqalar bo'lsa jim, Qora qo'lidagi xivich bilan yerga qanaqadir shakllar chizgan ko'yi, hammasiga o'zi aybdordek boshini xam qilib o'tirar, Chittak esa safarxaltasidagi narsalarni kavlashtirish bilan ovora edi.

- Cho'rt poberi! - dedi u bir mahal hushtak chalib. - Marjoni shisha ekan manjalaqining!

Tosh ajablanib u tarafga qaradi. Malla Chittakka qarab kulib qo'ysi va Toshga tushuntirdi:

- O'tgan kuni shaharda ikkita oyimcha uchragandi, - dedi tirjayib, - ul-bul narsalarini "sovg'a" qilib ketishdi.

- Soati tilla ekanmi ishqilib? - xo'mraydi Chittak qovog'in solgancha.

- Menimcha toza bo'lishi kerak, - ko'krak chontagidan qandaydir soatni chiqarib qaradi Malla va Toshga uzatdi, - mana ko'ring, Tosh aka, probasi bor-a?

Tosh uning qo'lidagi jajjigina soatni istar-istamas qo'liga oldi, u yoq-buyog'ini aylantirib ko'rdi-yu, tuyqus avzoyi o'zgardi.

- Qayoqdan oldinglar buni? - so'radi Mallaga yalt etib qarab.
- Aytdim-ku, kecha ikkita "chuvixa"ni uchratdik deb... Ikkoviyam yaxshi narsalar ekan, - dedi Malla Toshning yuz-ko'zlaridagi o'zgarishga e'tibor bermay.

Tosh chiroyli, quyuq qoshlarini chimirib bir unga, bir yana soatga qiziqsinib qaradi. Keyin soatning orqasidagi o'chinqiragan, sezilar-sezilmas o'yib yozilgan harflarga ko'z yugurtdi va birdan seskanib ketdi.

Baliqning ko'zidekkina keladigan tilla soatning orqa tarafiga mayda, jimjimador harflar bilan "Zumradga esdalik uchun.

Akasisdan" deb yozib qo'yilgan, bir qaraganda, ular yozuvdan ko'ra soatga o'yilgan jimmima naqshlarga ham o'xshab ketardi.

Tosh soatni barmoqlari orasida tutgan ko'yи serrayib qoldi. Malla ham buni sezdi shekilli, unga hayron bo'lib qarab qo'ydi.

- Qaerda ko'rdir dedilaring ularni? - so'radi sekin Tosh.

- Chorsuda... Bozor yaqinida... - dedi Malla Chittak tarafga bir qarab olib.

- Qizlarga hech nima qilmadilaringmi? - yana so'radi Tosh ovozi hirqirab.

- Yo'q, - bosh chayqadi Malla taajubi ortib, - shunchaki... Odatdagidek ul-bul narsalarini oldik... - u shunday deb tirjaydi, - ana, bittasining bo'ynidagi dur shisha bo'lib chiqdi...

- Shu soat menda turatursin, - dedi Tosh negadir rangi o'zgarib va uni kafti orasida qisgancha o'midan turib, nari ketdi.

Tosh bu jippi soatni qamoqdan qaytgan yili singlisining tug'ilgan kuni sotib olib, orqasiga yozdirib sovg'a qilgan, bechora singlisi quvonchdan yuragi yorilgudek bo'lib, ho'ngrab yig'lab yuborgandi o'shanda...

Shu topda Toshni tanib bo'lmas, ozg'in yonoqlari pir-pir uchib, lablari sezilar-sezilmas titrar, bu soat xuddi kaftini cho'g' misoli kuydiraytgandek tuyulardi unga.

"Mana, nihoyat o'z singlimning narsasini ham o'g'irlash darajasiga yetibman, - O'ylardi u qiyinalib. - Qanaqa ahvolda ekan hozir sho'rlik? Turgan gap, soatimni akamning sheriklari shilib ketdi deb o'ylaydi... Men esa... Oyim bechoraning holi nima kechdi ekan? Ko'zlar ochiq, sog' bo'lalar ham mayliyi. Men-ku mayli, xudoga nima yozishgan ekan ular? Bir o'g'il, bir aka bo'lib ularga nima karomat ko'rsatdim o'zi?.. Qanday qilib yuzlariga qarayman? Hamma ularni "Ana, o'g'ri Toshning onasi!", "Ana, kissavur Toshning singlisi" deb qo'lini bigiz qilib ko'rsatmaydimi? Nega bunaqa bo'ldi? Kim, nima sababchi bunga? Nega bu botqoqqa botib qoldim?.. Mana, ishongan tog'im Tarlon ham qochdi-ketdi. Men qayoqqa boraman? Sheriklarim-chi?!.".

Shu payt Hasan Toshni chaqirdi-yu, uning xayoli bo'lindi. Oyoqlarini og'ir sudrab o'sha tarafga yurdi.

Hamma mashinaga chiqdi. Tosh ham haydovchi yonidagi o'rindiqqa chiqarkan, yelkasi osha orqaga bir qarab, yuragi uvushib dedi:

- Ketdik!..

Mashina pana-pastqam ko'chalar oralab, shahar tashqarisi tomonga yo'l oldi. Styopa chorrahada turgan "gai"chilar va ularning mashinasini ko'rib, Toshga qaradi. Tosh boshi bilan chap tarafga imo qildi va "Bizning mahalla tomondan chiqib ketamiz" deb qo'ydi.

- Nima keragi bor u yoqqa borishning? - norozi ohangda to'ng'illadi Qora orqa tarafdan. - Hozir hamma yoqni "ment"lar bosib yotibdi.

- Uyga bir kirib o'tishim kerak, - gapni qisqa qilib qo'ya qoldi Tosh.

Boshqalar ham bundan norizo bo'lishdi. Kimdir "Shahardan tezroq chiqib ketish kerak" desa, boshqasi "U yoqda Tarlon aka kutib qoladi" deb pisanda qilib qo'ysi, yana boshqasi "Ishqilib, qo'lga tushib qolmasak bo'lidi" degandek ilmoqli gap qildi.

- Bir daqiqaga! - dedi Tosh ovozini balandlatib. - Keyin boshimiz oqqan tarafga qarab ketaveramiz. Men uyga kirib qolib ketmayman-ku, sizlardan ajralib qayoqqa boraman?..

Orqa o'rindiqlarda unga xo'mrayib o'tirgan Qora ham, oynadan tevarak-atrofga xavotirlanib qarab borayotgan Hasan-Husanlar-u, nima bo'layotganini hali-hamon tushunib yetmaganday dovdirab borayotgan Chittakdan tortib, hurpayib o'tirgan Mallagacha Toshdan qo'rqishar, uni Tarlonning o'ng qo'li sifatida hurmat qilishar, ayni damda unga qattiq ishonishardi. Shu sabab, hamma jum bo'ldi.

"Damas" ko'hna mahallaga kirdi-yu, Toshning ishorasi bilan ko'cha yuzidagi eski, rangi uniqib ketayozgan pastak eshik ro'parasida to'xtadi.

Tosh qariyb uch oydan beri qadam qo'yman uyini ko'rib, yuragi orziqb ketdi. Lekin buni sheriklariga sezdirmadi. Mashina eshigini ochib tushib, yo'l chetida velosipedining qaerinidir sozlayotgan bolakayni ko'rib chaqirdi. Bola hayron bo'lib yoniga kelgachgina uni tanidi shekilli, kemshik tishlarini ko'rsatib jilmayib qo'ydi. Tosh qo'shni bolaga Zumrad opasini chaqirib berishni aytdi, keyin birdan "Yo'q, shoshma, yaxshisi mana buni olib kirib bera qol" deb uning qo'liga dastro'molchaga o'ralgan soatni tutqazdi.

Bola yugurib uyga kirdi. "Damas" endi o'midan qo'zg'algandi hamki, eshik taraqlab ochilib, sochlari yelkasiga parishon yoyilgan, sarpoychan yugurib chiqqan Zumrad ko'rindi.

- Tezroq hayda! - baqirdi Tosh haydovchiga.

Mashina shitob bilan o'ngdag'i ko'chaga burildi, ammo uning oxiri berk ekanligini ko'rib, Styopaning ko'zi ola-kula bo'lib ketdi.

- Orqaga bur, orqaga! - qichqirdi yana Tosh.

Mashina orqaga burilib, yana ko'cha yuziga chiqdi.

- Gazni bos! Nima, uxdaysanmi? - jonholatda bo'kirdi Qora.

- Yo'lga qara! Mashina kelayapti! - unga qo'shildi Malla atrofga alanglab.

Haqiqatan ham ro'paradan chiqib kelgan bahaybat "Avtolavka" yo'l o'rtafiga kelib to'xtab qoldi. Orqa tarafdan esa, kutilmaganda melisa mashinasining qulqoni qomatga keltiruvchi sirenasi eshitildi.

- Qopqon! - baqirib yubordi Qora sakrab o'midan turarkan va Toshga o'girildi, - men senga buyoqqa kelmaylik degandim-a?

- Vahima ko'tarma! - dedi Tosh u tarafga qaramay. - Hozir chiqib ketamiz!

Ammo chiqib ketish qiyin, old tarafda "Avtolavka", orqada melisa mashinasini yo'lni to'sib turardi. Hamma sarosimaga tushib qoldi.

Mashina esa qaysi tarafga yurishni bilmay, vag'illagancha yo'lning goh u, goh bu chetiga o'tar, chiqib ketadigan yo'l topolmay jig'ibiyroni chiqayotgan haydovchi hadeb ustma-ust signal chalardi.

- Trotuar tomonga yur! - baqirdi Tosh old tomonni ko'rsatib.

Mashina u ko'rsatgan tarafagini torgina tsement yo'lka tarafga yurdi-yu orqa g'ildiragi toyib ketdimi, ariqqa tushib, vag'illagancha to'xtadi.

Shu payt ko'chani boshiga ko'tarib, megafoning ovozi qulqona chalindi:

- Tosh!.. Foydasi yo'q!.. - derdi undan erkak tovushi. - Hammayoq o'rab olingan! Mashinadan tushinglar!..

This is not registered version of TotalDocConverter

- Bekonam tushgannan, qolqa tushmangal amming yo'q! - baqirdi Qora cho'ntagidan to'pponchasini chiqarib.

Boshqalar ham, kim tugmachali pichog'ini, kim to'pponchasini qo'liga oldi.

- Vahima ko'tarmanglar, - dedi Tosh xotirjam tovushda, - agar ularga men kerak bo'lsam, tushib qolaman. Sizlar ketaverasizlar!

- Ha, juda qo'yib yuborishadi! - alam bilan chiyilladi Qora jahl bilan. Shu payt kutilmagan yana bir hodisa yuz berdi. Yo'l o'rtasiga ko'ndalang to'xtab qolgan "Avtolavka"ning eshigi ochildi-yu, ichidan o'nga yaqin qurollangan melisalar sakrab tusha boshladi.

- Finita la komedia! - dedi rangi oqarib ketgan haydovchi bosh chayqab. - Endi foydasi yo'q!

- Hayda aravangni! - jon holatda bo'kirdi Qora to'pponchasini havoda silkib. - Agar qo'lga tushsak, bittangniyam sog' qo'ymayman... Ularni bosib bo'lsayam o'tib ketamiz!..

"Tosh! Bizni eshitayapsanmi?.. Mashinadan tushinglar! Qarshilikning foydasi yo'q!" - megafondan yana ovoz yangradi.

Ko'cha yuzida bu shovqin-suronni eshitib, qo'ni-qo'shni to'plana boshladi.

- Hammasi tamom, - dedi Malla yig'lamsiragancha, - endi nima qilamiz, Tosh aka?

- Shoshmanglar! - dedi Tosh o'rnidan qo'zg'alib. - Men tushman. Ularni chalg'itib turganimda, sizlar xalqani yorib o'tib ketasizlar!..

- Yo'q, kemaga tushganninig joni bir, aka, - dedi Hasan tovushi titrab.

- Qayoqqa boramiz? Mashina botib yotibdi-ku! - haydovchi hafsalasi pir bo'lganini yashirmadi.

- Senlarni bilmadim-u, mening qo'lga tushgim yo'q! - tuyqus qichqirib yubordi Qora va eshikni surib ohib, yerga sakrab tusharkan, melisalar turgan tarafga ketma-ket o'q uzdi.

Qarsillagan o'q tovushlaridan hammayoq larzaga tushgandek bo'ldi.

Mashina g'ildiraklarini chirpirak qilgancha yana chiqib ketishga urinib, vag'illay boshladi.

Qora bo'lsa ko'chaning u betidagi qalim butalar orasiga o'zini urishga shoshildi-yu ulgurolmadi. Orqa tarafdan otilgan o'q uni yerga qulatdi. Hammasi ko'z ohib-yumguncha sodir bo'ldi.

"Damas"ni qurollangan melisalar o'rab olishdi. Qonga belanib yotgan Qurani melisalarning o'zları ko'tarib, qayoqqadir olib ketishdi. Mashina ichidagilar qurollarini tashlab, qo'llarini ko'targancha yerga tusha boshladilar. Hammalarining qo'llariga kishan solindi va shu yerga yetib kelgan panjaralni mashinaga chiqarisharkan, ayol kishining "Aka-a!" degan chinqirig'i eshitildi.

Bu Zumradning hayqirig'i edi. Sochlari to'zg'igan, oyoqyalang Zumrad xuddi esi og'ib qolgandek gandiraklagan ko'yi yugurib keldi-yu, Toshning bo'yning osildi.

Tosh Zumrad deya singlisini bag'riga bosdi, sochlari siladi, "Qo'rhma, hammasi yaxshi" deya oldi xolos.

- Tezroq bo'laqolning! - dedi kimdir.

- Tosh! Mashinaga chiq! - buyurdi melisalardan biri.

- Sizlar ketaveringlar. Biz orqalarindan yetib boramiz, - dedi leutenant Sharipov ularga ma'noli qarab qo'yib.

- Bu qanaqasi? - to'ng'illadi melisalardan biri norozi ohangda. - Bir haftadan beri qopqon qo'yib, "Avtolavka"da dimiqib o'tirganimiz yetmagandek, endi tayyor go'shtni qo'ldan chiqarib o'tirsak!

- Boraveringlar dedim, - xo'mraydi leutenant bulbuligo'yo bo'lib sayrayotgan yigitga qarab. - Tosh uchun men javob beraman!..

Panjaralni mashina o'rnidan qo'zg'aldi.

Yo'l o'rtasida esa Zumrad qo'llariga kishan solingen Toshning ko'ksiga bosh qo'ygancha yig'lab turar, bu g'alati manzaradan hamma lol-u hayron edi. Qo'shnillardan kimdir ko'zi ojiz onasining yetaklab chiqayotganini ko'rib, Tosh o'sha tarafga intilgandi, yonida turgan melisa yigit "Qimirlama!" deya yo'lini to'sdi.

Leytenant Sharipov esa qo'yaver degandek bosh chayqadi.

- Qochib ketmasmikan? - dedi boshqa melisa xavotirlanib.

- Hech qayoqqa ketmaydi, - javob berdi leytenant ishonch bilan. - Toshni o'zimiz bilan olib ketamiz!

Ko'zları ojiz onasining ozg'in qo'llarini yoygan ko'yi yirtiq kalishini shapillatib o'zi tomon kelayotganini ko'rgan Tosh chidayolmadi. U tomonga bir-ikki qadam qo'ymoqchi bo'ldi-yu, holi kelmadi. Onasining qarshisida tiz cho'kkancha qoldi...

Zumrad bu operatsiya rahbari leytenant Sharipovga, leytenant esa unga qarab qo'yishdi. Bu birov sezgan, birov sezmagan sirli nigohga yashiringan ma'noni faqat ularning ikkovigina bilishardi xolos...